

**Denov tumani Axborot – kutubxona markazi.**

**Axborot – bibliografiya xizmati.**

**BUYUK SARKARDA VA DAVLAT ARBOBI**

(Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bagʻshlanadi)

**(uslubiy- bibliografik qoʻllanma)**



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR**  
**(1483-1530)**

## KIRISH SO‘ZI.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi Umarshayx Amir Temurning nabirasi bo‘lib, Farg‘ona viloyatining hukmdori edi. Yosh Zahiriddin Bobur saroy muhitida, murabbiylar va mudarrislar qo‘lida tarbiyalandi. Umarshayx vafot etgach, 12 yoshli Zahiriddin Bobur taxtga o‘tiradi. Bu davrda mamlakatda ichki urushlar avj olgan edi. Bobur butun kuchini Movarounnahrni markazlashgan davlat ostida birlashtirishga qaratdi. Biroq Shayboniyxonning temuriylardan hokimiyatni tortib olish uchun boshlagan shiddatli hujumi bu maqsadni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymadi. Bobur Shayboniylar tomonidan qat‘iy zarbaga uchradi va Samarqand hamda Farg‘onadan butunlay voz kechishga majbur bo‘lib, 1514-yilda lashkarlari bilan Afg‘onistonga ketdi. U yerda kuch to‘plab Hindistonni qo‘lga kiritdi va u yerda tarixda «Buyuk boburiylar imperiyasi» deb nom chiqargan davlatga asos soldi.

1529-yilga kelib Bobur asos solgan davlatga Afg‘oniston, Panjob, Gang vodiysi (Bengaliya chegarasigacha) kirar edi. Boburiylar hind yurtida qariyb 300 yil adolat bilan davlatni boshqardilar, ulkan tarixiy obidalar qurdirdilar. Shulardan Tojmahal (Shoh Jahon va malika Mumtoz Mahal maqbarasi) me‘moriy yodgorligi oq marmardan qurilgan bo‘lib, 5 gumbaz, 4 minora, balandligi 74 metrdan iborat muhtasham binodir. Atrofi bog‘ va devorlari rangli toshlar bilan bezatilgan. Bobur katta davlat arbobi, taniqli sarkarda bo‘lishi bilan birga, iste‘dodli olim, tengsiz shoir ham edi. U o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy an‘analarini davom ettirib, ko‘plab ilmiy, g‘oyat go‘zal badiiy asarlar yozib qoldirdi. Bobur garchand vatandan yiroqda umr kechirgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiy tilining, o‘zbek adabiyoti va she‘riyatining rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning dilrabo g‘azallari san‘atkorlar tomonidan kuylab kelinadi. Bobur she‘riyatida ona yurtga muhabbat mavzusi etakchi o‘rin tutadi. Shuningdek, u chin insoniy fazilatlarni ulug‘laydi. Sevgi, oliyjanoblik, sadoqat kabi tuyg‘ularni tarannum etadi. Bobur o‘zbek adabiyotida birinchi memuar asar yozgan adib hamdir. “Boburnoma”da muallif o‘z ko‘rgankechirganlarini haqqoniy aks ettiradi.

Bobur kishilarni ma‘rifatli qilish orzusi bilan yashagan, u “Xatti Boburiy” nomli yozuvni ham ishlab chiqqan. Bobur ijodida g‘azal, ruboiy, tuyuq, fard, chiston kabi janrlarni ko‘rish mumkin. Bobur she‘riyatining tili sodda, xalqchilligi bilan diqqatga sazovor. Shoh va sarkarda, buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi xalqimizni ezgulikka, ilm - ma‘rifatga chorlaydi: Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak, O‘rgangani ilm tolibi ilm kerak, Men tolibi ilm-u, tolibi ilme yo‘q, Men bormen ilm tolibi, ilm kerak. Uning asarlari orasida “Boburnoma” nomli memuar asari dunyoga mashhur. Bu asar zamonasining eng mukammal nasriy asari hisoblanib, jahon adabiyotiga qo‘shilgan bebaho durdonadir. Unda xalqimiz tarixiga doir, Sharq xalqlari tarixi, geografiyasi, urf-odatlar va boshqa ma‘lumotlar o‘z ifodasini topgan. Bu asar dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilinib, katta

nusxalarda nashr etilgan. Bobur katta davlat arbobi va sarkarda bo‘lishi bilan birga, iqtidorli olim va shoir ham edi. Boburning «Boburnoma» nomli asari sharq tarixi, geografiyasi bo‘yicha g‘oyat muhim ma‘lumotlarga ega nodir ilmiy-adabiy yodgorlikdir. Bu asar dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yil 26- dekabrda 47 yoshida Hindistonning Agra shahrida vafot etgan. Keyinchalik esa Zahiriddin Boburning o‘z vasiyatiga ko‘ra, uni Qobulga olib kelib dafn etganlar. Shunday qilib, boburiylar sulolasi Hindistonda 1526-yildan 1858-yilgacha davom etdi. Hindistonda hozir ham boburiylar sulolasi vakillari yashaydi. O‘zbekiston P respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng qadimgi aloqalar yana tiklandi.

## **Xurmatli kitobxon va mutaxassislar !**

### **Bu qo‘llanma keng kitobxon va mutaxassislar uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanmadir!**

#### **Maqsad:**

- a) Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘li haqida ma‘lumot berish;
- v) O‘quvchilarga Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan davlat haqida ma‘lumot berish;
- s) Bobur ruboiylarini yod oldirish va mazmunini tushuntirish.

## **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR - ADOLATLI SHOH VA BUYUK SHOIR tavalludining 540 yilligi munosabati bilan bayram tadbirini o‘tkazish yuzasidan tavsiya.**

Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o‘rin oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she‘riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), «Xatgi Boburiy», “Harb ishi”, Aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she‘riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Tarixiy ma‘lumotlarda aytilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z

hukmronligini uzil-kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300-yildan ortiq vaqt hukmronlik qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she‘rlarivatarixiy “Boburnoma”-sidantashqari, islomqonunshunosligivatasavvufdayaxshiasarlaryaratgan.

Xulosashuki, adolatlishohvabuyukshoirBoburo‘ziningma‘lumvamashhurasarla ribilantarixnavisadib, lirikshoirhamdajtimoiyamasalalaryechimigao‘zhissasiniqo‘shganolimsifatidaxalqi mizma‘naviyamadaniyatitarixidao‘chmasizqoldirdi.



Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yub Hind sori yuzlandim,  
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,  
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.

Ne nav' bitay firoq-u g'urbat sharhin –  
Kim, ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rماغay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur

\*\*\*\*\*

## Tadbirlar ssenariysi:

### SHOH VA SHOIR BOBOMIZ!

Sahna chiroyli qilib did bilan bezatilgan. To'rida Bobur Mirzoning portreti, uning ruboiylaridan namunalar yozilgan plakatlar osilgan. Mayin musiqa sadosi ostida sahnaga boshlovchilar kirib keladi va salomlashadilar.

**1 – boshlovchi:** – Bugun biz sizlar bilan bu yerda temuriylar avlodining iste'dodli vakili, atoqli shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining tavallud ayyomini nishonlashga yig'ilganmiz.

**2 – boshlovchi:** – Shoh va shoirning suronli hayot yo'li, uning Hind tuprog'ida amalgam oshirgan buyuk ishlari, jahon adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi birin – ketin gavdalanadi.

**1 – boshlovchi:** – Hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar hamda o'quvchilar. Bugun biz sizlarga “Shoh va shoir bobomiz” nomli tadbirimizni e'tiboringizga havola etamiz.

Raqs ijro etiladi.

**2 – boshlovchi:** – Z. M. Bobur 1483 yil 14 fevralda o'zining “Boburnoma” asarida mahorat bilan tasvirlagan go'zal Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'iladi. Otasi – temuriylar avlodidan bo'lgan Umarshayx Mirzo o'sha davrda Farg'ona viloyati hokimi edi.

**1 – boshlovchi:** – 1495 yil Umarshayx Mirzo fojeali ravishda vafot etadi. Viloyatni boshqarish 12 yoshli Bobur zimmasiga tushadi.

**2 – boshlovchi:** – Toju taxt., saltanat ishlari, jangu jadallar – bularning bari uning murakkab hayotidan dalolat beradi.

**1 – boshlovchi:** – Bobur Shayboniyxon qo’shinlari qamal qilgan Samarqandni tashlab, Afg’oniston orqali Hindistonni egallaydi va umrining oxirigacha Hindistonda yashab, ijod qiladi, saltanatni boshqaradi.

**2 – boshlovchi:** – O’g’li Humoyun, nabirasi Akbarlar uning faoliyatini davom ettiradi.

**1 – boshlovchi:** – Boburiylar sulolasi bir necha yuz yillar davomida Hindistonda hukmronlik qilishadi.

### **O’quvchilar shoir ijodidan namunalar keltirishadi.**

**1 – o’quvchi:** Davlatga yetib mehnat elin unutma,  
Bu besh kun uchun o’zingni asru tutma.  
Borg’onni kel emdi, yod qilma, ey do’st,  
Boorish – kelishingni lutf etib o’ksutma.

#### **2 – o’quvchi:**

Eshitsa kishi bu sho’ru shevan ne degay,  
Doim bu tariq ichguni ko’rgan nedegay,  
Dushman so’ziga kirma, eshit do’st so’zin,  
Eshitmasa so’zni do’st, dushman ne degay.

**1 – o’quvchi:** – O’zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o’zining qisqa va murakkab hayoti davomida sermahsul ijod qila olgan buyuk iste’dod sohibi edi.  
Uning barcha asarlari bizgacha to’liq yetib kelgan emas.

**2 – o’quvchi:** – Shoirning to’liq bo’lmagan devoni, “Mubayyin” nomli she’riy risolasi, “Volidiya” deb atalguchi kitobchasi, Bobur tuzgan “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo’lgan alifbo hamda yirik me’nuar asar “Boburnoma” ana shular jumlasidandir.

**3 – o’quvchi:** – “Boburnoma” asarining mazmuni rang – barang bo’lib, O’rta Osiyo, Afg’oniston, Hindiston, Eron xalqlari tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga oid muhim ma’lumotlarni o’z ichiga olgandir.

**4 – o’quvchi:** Tili va uslubi ravon hamda go’zal asarning asl nomi “Boburiya” bo’lsada, u “Voqenoma”, “Voqeati Boburiy”, keyinchalik “Boburnoma” deya atala boshlagan.

**5 – o’quvchi:** – Asarni o’qir ekanmiz, o’sha davr Afg’oniston va Hindistonga taluqli bo’lgan geografik atamalar, o’simlik va hayvonot olami, tarixiy shaxslar bilan tanishamiz.

**6 – o’quvchi:** – Farg’ona viloyati poytaxti bo’lmish Andijon haqida “Boburnoma”da juda keng ma’lumotlar berilganini guvohi bo’lamiz.

**7 – o’quvchi:** – “Oshlig’I mo’l, mevasi farovon. Qovun va uzumi yaxshi bo’lur. Pishiqchilik mashali poliz boshida qovun sotish rasm emas” kabi go’zal vodiy tabiati va qadriyatlari haqida ham bilib olamiz.

**1 – boshlovchi:** – XX asr o’zbek romanchiligida adibimiz Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” (“Bobur”), “Humoyun va Akbar” (“Avlodlar dovoni”) kabi tarixiy asarlari muhim rol o’ynaydi.

**2 – boshlovchi:** – Yozuvchi Bobur hayoti, uning Hindistondagi faoliyatini, buyuk sarkarda tuzgan ulkan saltanat Boburiylar saltanati davomchilarini romanlarida g’oyat mahorat bilan tasvirlab bergan.

**1 – boshlovchi:** – Asarni o’qir ekanmiz, buyuk siymo Zahiriddin Muhammad Boburning dastlab Andijondagi hayoti va ijodi bilan mukammal tanishamiz. O’quvchilar ijrosida Vatan haqida qo’shiq ijro etiladi.

**1 – boshlovchi:** – Bobur o’zbek adabiyotida lirik janrlar rivojiga katta hissa qo’shgan xassos shoirdir. Uning lirikasini g’azal, ruboiy, qit’a, tuyuq, masnaviy va muammolar tashkil etadi. Bobur she’riyatida ona yurtga muhabbat, vatanni qo’msash, motivlari katta o’rin egallaydi. U ushbu kechinmalarini, ayniqsa ruboiylarida keng ko’lamda ifoda etadi.

### **O’quvchilar Z. M. Bobur ruboiylaridan namunalar o’qishadi.**

Davron meni o’tkardi sar-u, somondin,  
Ayirdi meni bir yo’lda xon-u mondin.  
Gah boshima toj gah baloyi ta`na,  
Nelarki boshimg’a kelmadi davrondin.  
Tole yo’qe jonimg’a balolig’ bo’ldi,  
Har ishniki ayladim xatolig’ bo’ldi.  
O’z yerni qo’yib Hind sori yuzlandim,  
Yorab netayin ne yuz qarolig’ bo’ldi.  
Hijron qafasida jon qushi dam qiladur,  
G’urbat bu aziz umrni kam qiladur.  
Ne nav`bitay firoqu g’urbat shahrin,  
Kim ko’z yoshi nomaning yuzini nam qiladur.  
Ko’pdin berikim yoru diyorim yoqtur,  
Bir lahza – yu bir nafas qarorim yo’qtur.

Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,  
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

**2 – boshlovchi:** – Shoir buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ananalarini davom ettirib vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma`rifatparvarlik, yorga muhabbat g'oyalari bilan sug'orilgan ajoyib asarlar bitdi.

**1 – boshlovchi:** – U axloq – odob mavzusiga e`tiborni qaratdi. Yaxshilikni ulug'ladi, xalq manfaatlarini o'yladi. Inson qadr – qimmatini yuqori tutdi. Odamlarni kamtarin, ko'rkam fazilatlar egasi bo'lishga da`vat etdi. O'quvchilar shoir ijodidan namunalar o'qishadi:  
Bu zamoni naf'y qilsam, ayb qilma, ey rafiq,  
Ko'rmadim hargiz netayin, bu zamondin yaxshilig'.  
Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko'ngluma,  
Kelmadi jonimg'a hech oromijondin yaxshilig'.  
Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yomonlig' asru  
Emdi ko'z tutmoq ne ya`ni har yomondin yaxshilig'.  
Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.  
Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi  
Kim ko'ribdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'.

**1 – boshlovchi:** – O'zining qisqa – 47 yillik umri davomida naqadar buyuk ishlarni amalgam oshirgan qudratli davlat barpo etgan, ajoyib asarlari bilan dunyo ahliga tanilgan bobomiz bilan qancha faxrlansak arziydi.

**2 – boshlovchi:** – O'zbeklarning bir yaxshi odati bor, qayerga borsa bog' yaratadi, go'zallik bunyod etadi. 1504 yili Bobur Qobulni egalladi. Bu yerda ham u bog'u rog'lar yaratishga kirishdi. Aytishlaricha Bobur Qobulda o'rta bog' barpo qilgan. 1508 – 1509 yillarda esa Odinapur qal'asi yaqinida “Bog'I Vafo” nomli bog' bunyod qildirdi.

**1 – boshlovchi:** – Aytishlaricha xushbo'y atirgulni Hindistonga birinchi bo'lib Bobur keltirgan ekan. Bobur Mirzo tabiat go'zalligini nihoyatda chuqur xis qiladigan inson bo'lgan. U o'zining “Boburnoma” asarida Dashti Shayx qirlari etagida o'sadigan lolaning 33 xilini aniqlab, yozib qoldirgan.

**2 – boshlovchi:** – Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotiga har qancha xavas qilsa, undan har qancha saboq olsa arziydi. Bobur hayotida qanday bo'lgan bo'lsa, yozgan aarlarida ham shunday: mard, rostgo'y, tabiiylikni nihoyatda qadrllovchi, samimiy tavakkal va zavq sohibidir.

**1 – boshlovchi:** – Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk iste`dodli farzandi. U (1521) “Zakot bayoni” asari, (1525) “Muxmasar” nomli risola “Xarb ishi”, “Musiqqa ilmi” nomli asarlari nafaqat o'zbek adabiyoti balki jahon adabiyotining



nodir namunasi sanaladi. Bobur asarlari orqali, ham shoh, ham shoir, ham olim, ham oshiq, ayni paytda g'urbat o'tida bag'ri yongan bir g'arib bo'lib so'zlashadi biz bilan.

**2 – boshlovchi:** – Zahiriddin Muhammad Bobur bor yo'g'I 47 yil umr ko'rgan bo'lsa, shundan 36 yilini uch mamlakatda: Movarounnahrda, 22 yili Qobulda va 5 yili Hindistonda o'tdi.

**1 – boshlovchi:** – Zahiriddin Muhammad Bobur biz uchun mahobatli bir yulduz. Uning zavq baxsh umri hech qachon so'nmaydi. Ana shu musaffo nur sizni bizning ong va idrokimiz yorishuviga hizmat qiladi. Bundan qarib 5 asr muqaddam shunday bo'lgan. Hozir ham shunday, keyin ham shunday qolajak.

**2 – boshlovchi:** – Uning asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Vatanimizning eng diqqatga sazovor joylari shoir nomi bilan ataladi. Bu kun uning haykali poyida anvoyi gullar yashnab turibdi.

**Boshlovchilar:** – Mana azizlar! Shu bilan ulug' sarkarda iste'dodli shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag'ishlangan kechamiz o'z nihoyasiga yetdi. Xayr, omon bo'ling!

\*\*\*\*\*

“BOBUR KABI SEVING VATANNI” – TADBIRI

1-boshlovchi

**O`zbekning salomi qaynoq qalbiday,  
Unda shukrona bor, pur ma`no kalom.**

**Qo`lim ko`ksim uzra tutib barilla,  
Men ham sizga deyman salom assalom.**

2-boshlovchi

**Salomdan boshlanar har bir qalbga yo`l,  
O`zbek deganiga bu aziz kalom.**

**Men ham o`zbek axir, zo`r shukuh bilan,  
Qo`lim ko`ksim uzra deyman assalom.**

1-boshlovchi:

**Assalomu alaykum kelajak poydevori sanlmish o'quvchi yoshlarni  
tarbiyalayotgan qadrli ustozlar.**

## **2-boshlovchi:**

**Assalomu alaykum ilm olishda hormay ter to'kayotgan o'zining kelajagini ilm nuri bilan yoritib borayotgan ertasi porloq o'quvchilar.**

## **1-boshlovchi:**

**Mutafakkir Abdulla Qodiriy aytganidek: “Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik”, – deya tariximizning oltin sahifalaridan o'rin olgan bobokalonimiz, temuriylarning so'nggi vakili Zahiriddin Muhammad Bobur siymosini xotirlab barkamol avlodlik burchini ado etsak.**

## **2-boshlovchi:**

**Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotimiz tarixidagi takrorlanmas siymolardan biridir. Dunyoni hayratga slogan bu bobokalonimizdan har qancha faxrlansak, shuncha oz.**

## **1-boshlovchi:**

**Jahongir, Bobur bobomizning qaysi ruboiysi xalqimiz orasida mashhur, deb o'ylaysiz?**

## **2-boshlovchi:**

**Menimcha, barcha ruboiy-u g'azallari xalqimizning qalbidan joy olgan. Lekin menga bir ruboiysi juda ham yoqadi.**

## **1-boshlovchi:**

**Qani, eshitaylik-chi.**

## **2-boshlovchi:**

**Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.  
O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,  
Yorab, netayin ne yuz qarolig' bo'ldi.**

## **1-boshlovchi:**

**Ha, juda ham ta'sirli ruboiy. Vataniga talpinib, unga qaytishni orzu etgan Boburning armonlari – bu. Keling, endi navbatni Bobur ruboiylariga bersak. Ularning mag'zini chaqish esa tomoshabinlarga havola.**

**( RUBOIYLAR)raqs**

## **1-boshlovchi:**

**Tarixni bezamish ne ulug' zotlar,  
Ular ta'rifiga ming ojiz baytlar.**

Lekin bir shoir bor buyukdan buyuk,  
Barchaga manzur-u barchaga suyuq.

2-boshlovchi:

Bobur nomin bilmas qaysi yurt bu kun  
Temuriy avlodi sarkarda durkun.  
Tig' bilan zabt etmish Hind-u Osiyo,  
She'r bilan olamni etdi mahliyo.

1-boshlovchi:

Hindiston azaliy sirli bir mavo,  
Undan taralgaydir bir ajib navo.  
Navoki, vatanga bo'lgan muhabbat  
Muhabbat hijrondan yaralgan xilqat.

2- boshlovchi:

Asarlari hamon tillarda doston,  
Bitgan har baytida ko'ngli namoyon,  
U hamon barhayot, u hamon daho,  
Temuriy bobomiz – bu Bobur Mirzo.  
( Sahna qorong'ulashib, Bobur kirib keladi)

Bobur

Assalom yosh avlod salom bolajon  
Menga armon bo'lgan vatan andijon  
Olisdan siz tomon boqib nigoron  
Jismimda sog'inchdan qolmadi bir jon  
Qismat g'alat ekan taqdir beayov  
Shohman hindda lek o'z yurtimga zor  
Talpinganim faqat andijon  
Lekin menga yurtdan hijrin bo'ldi yor  
Amir temur bobom izini  
Bosmoq bo'ldim dushman toydirdi  
Yoshlik qildim chalg'itdi g'anim

Samarqandni qo`ldan boy berdim  
Armon menga yurtim andijon  
O`zim hidda qolgan anda jon  
Armon menga bobomeros el  
Armon yoshlik sovurgani yel  
Bola edim esda umarshayxzoda  
Otam bilan birga borgandim ovga...

### 1-BOSHLOVCHI

Bobur shu lahzada padari buzrukvori Umar shayx mirzo bilan bir necha yillar oldin omadsiz kelgan ovi yodigani tushdi.bobur bir soniya bolaligini q`omsadi.

### UMARSHAYX

HECH BIR SHIKOR bu zayda omadsiz bo`lmas

Ne sababdan saydimizga bir hayvon tushmas

Yoki omad butkul bizdan yuzini burmish

Yo bir kimsa bizdin oldin saydimiz buzmish

Bu qanday hol ulamolar bu qanday sinov

Biz bu tog`da avallari qilganmiz shikor.

Bu gal nega yurishmaydi also ovimiz

Bizga bunda ov bo`lgandir ko`plab jonivor

Ulamo:

Xafa bo`lmang shohim illo bu olloh ishi

Qolaversa halierta ov etar davom

Ishongaymen alloh bizga bisyor ov bergay

Faqat buroz sabr qilib hordiq qilingiz

Umarshayx

Mayli bunda zahiriddin horigan balki

Keeling mirzom horidingizmi nechuk holingiz

Sizga shikor xush keldimi yoki ranjitdi

bobur

Hazrat padarbuzzrukvorim pushti panohim

Shikor juda maroqli ish menga xush keldi  
Tomishabop manzaralar juda ajoyib  
Boshimizga qanch qushlar shamoldek yeldi  
Rahmat sizga minnadorman padarbuzrukvorim

Umarshayx

Sizga maqul bo`lgan bo`lsa biz minnaddormiz

Ov aslida yigitlarga yareashiq ish

Bu janglarda sizga bermas zarra tashvish

Bobur

Kattalarga bazan tushunmoq mushkul

Ne xohlarlar ne istarlar hech bilib bo`lmas

Meni bunda qoldirgancha yolg`iz ulovsiz

O`zim uchun bir boshpana topmasam bo`lmas

Umarshayx

Yo olloh to`zim ber bolamni asra

Hoy bari nobakor xaris badbaxtlar

Shaxzodani agar sog` topmasangiz

Boshingizni dorga tortgum beayov

Shahzodam zahiriddin

Ulamo

Shohim sultonim shaxzoda omon

Umarshayx

Olloh o`zinga beadat shukur

Dilbandim sog` ko`rar ko`zim omon salomat

Qaylardan toddingiz qaylarda ekan

Shunday qorong`ulikda kuldi bizga baxt

Ulamo

Ruhsat eting so`zlay olampanohim

Umarshayx so`zlang

**Ulamo**

**Biz mirzoni izlab borur ekanmiz  
Ajab holat ustidan chiqdik tasodif  
Bir g`ordan qiyqirgan ovoz yangradi  
Yaqin bordik unga hech bo`lmas ta`rif  
Shahzoda mirzomiz sherlar uyida  
Uchta shervachchala o`ynar bearmon  
Avval qo`rdik amin bo`ldik so`ng  
Shahzoda q`oqmagan asl pahlavon  
Umarshayx**

**Bizning zahiriddin shervachchalarla  
Demak o`g`limizni sheryurakdir deng  
Tangi shohid bo`lsin bu dilbandimiz  
Bugundan bo`lgaydir bizning sherimiz  
Yaniki arablar sherni "babr" der  
Biz ham atagaymiz bobur ya`ni sher  
2-boshluvchi**

**Kitoblarda o`qib o`rganganmiz xo`p  
Bilamiz rohatdan tashvishingiz ko`p  
So`zlang bobur mirzo Samarqand azmin  
Unda chekkan bari mashaqqat zahmin  
Bobur**

**Samarqand Samarqand baldai mahfuz  
Dilovar ham lohar hamda dilafro`z  
Esimda u damlar Samarqand sayli  
Keyin qarang qanday taqdirning zayli...**

**1-boshlovchi**

**O qancha suronga bu zamin guvoh  
Qanch zotlar ketgan begunoh  
El deya or deya shon-shuhrat deya**

Yana qanch shohlar aysh ishrat deya

2-boshlovchi

Sizning kurashingiz yurt uchun shaksiz

Siz bundan ne totib ne yo`qotdingiz

So`zlang bobo bizga hind diyorida

sehrli diyorning yo`g` u boridan

bobur

hindiston hindiston qismatday qaro

men unda shoh bo`ldim lek yurtda gado

tole yo`qe jonimg`a balolig` boldi ...

1-boshlovchi

Hindistonga andijondan karvon kelib to`xtadi.karvondagi bir ayon shohga  
ona shahridan sovg`a keltirdi.

Ayon

Donolar donosi olampanoh shoh

Ruhsat eting kirsak huzuringizga

Bobur

Kiring

Ayon

Shohim karvon qaytmish uzoq vatandan

Ko`p sovg`alar bilan qaytmish adamdan

Dunyo kezib karvon bormish turkiston

Bizga vatan bo`lgan ona andijon

El yurt omommish sog` - u salomat

Unda hali xonmish saybonlar albat

Bilganlar so`ramish biz,arni bod bod

Hali ham yurtdoshlar etarkanlar yod

Bobur

Andijon andijon ota makonim

Mehring tortib turar jon onajonim

Ne qildik taqdir shu bizlar ojizimiz  
Haqdan hokimi yo`q biz hali kimmiz  
Mayliga yurt tinchgan shunga ham shukur  
Ko`nmay iloji yo`q taqdir bu turur

Ayon

Olampanoh sizga ahli andijon  
Bir sovg`a jo`natmish qilib arg`umon

Bobur

Ajab qanday sovg`a ayting men uchun  
Sizni hayajonga solib inchunun

Ayon

Sovg`aki sovg`aki bu vatan bo`yi  
Bu bo`yga hamohang andijon ko`yi  
Yurtning polizida bu mahal sayli  
Qovunlar g`arq pishmish krtganmiz mayl

Sizga ham ilinib xalqimiz bu kun  
Yubormish karvonla bir katta tugun

Unda andijonning bol qovunlari

Hindda taratadi mayin bo`ylari

Bobur

Ha shaksiz bu qovun yurt tuprog`idan  
Bo`yiga teng krlmas anbari xotan  
Kechagidek bu bo`y hamon dumog`da  
Undan andijonim hidi kelmoq da  
Ko`pdin berikim yor u diyorim yo`qdur...

2-boshlovchi

Endi navbatni raqsga beramiz

1-boshlovchi

Charxning men ko`rmagan jabru jafosi qoldimu  
Xasta ko`nglim chekmagan dardu balosi qoldimu



**Meni xor ettiyu qildi muddayin parvarish  
Dahri dunparvarning o`zga muddaosin qoldimu  
Meni o`lturdi javoyu javr birla quyosh  
Endi turguzmak u-n mehr u va vafosi qoldimu  
Ey ko`ngil gar bobur ul olamni istar qilma ayb  
Tengri u-nolamning safosi qoldimu  
En di navbatni g`allarga beramiz raqs**

**1-boshlovchi**

**Sizning tarixingiz biz u-n ibrat  
Sizdan bizga meros temuriy jurat  
Bugun har jabhaga biz yosh avlodlar  
Peshqadam bo`lamiz qilib shijoat**

**2-bosh**

**Sizga qondosh bo`lgan ona xalq bu kun  
Bizni qo`llamoqqa etgancha durkun  
Jon fido etamiz shu yurt vatanga  
Ona xalq ichonchin oqlamoq uchun  
Bobur...**

## **ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G'AZALLARI**

*Zahiriddin Muhammad Bobur G'azallari - Mumtoz she'riyatda g'azal shoirning salohiyati ko'lamini anglatuvchi asosiy janr hisoblangan. Har bir ijodkorning maqomi uning g'azalchilikdagi mahorat darajasi bilan belgilangan.*

### **K'aro zulfing firok'inda**

K'aro zulfing firok'inda parishon ro'zg'orim bor,  
Yuzungni ishtiyok'ida ne sabru ne k'arorim bor.

Labing bag'rimni k'on k'ildi, ko'zimdin k'on ravon k'ildi,

Nechun holim yomon k'ildi, men andin bir so'rorim bor.

Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,

Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amg'usorim bor.

Agar muslihmen ar musfid, va gar oshik'men ar obid,

Ne ishing bor sening zohid, meningkim ixtiyorim bor.

Fig'onim oshdi bulbuldin, g'ami yo'k' zarra bu k'uldin,

Base Bobur, o'shal guldin ko'ngulda horhorim bor

Topmadim Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglum dun o'zga maxrami asror topmadim.

Jonimdek o'zga jonni dilafgor ko'rmadim,

Ko'nglum kibi ko'ngulni girifdor topmadim.

Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi muftalo,

Hargiz bu telbani yana xushyor topmadim.

Nochor furk'ati bilan ho'y etmisham, netay.

Chun vasliga o'zimni sazovor topmadim.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,

Nechaki borib eshigiga, bor topmadim.

Bobur, o'zingni o'rgatakor, yorsizki, men

Istab jahonni, muncha k'ilib, yor topmadim

### **Ruboiylar**

\* \* \* \* \*

Tak'dir yuki boshimga balolig' bo'ldi,

Har neniki ayladim hatolig' bo'ldi,

Oz yurtni k'o'yib Hind sori yuzlandim,

Yo Rab netayin, bu ne yuz k'arolig' bo'ldi.

\*\*\*\*\*

Jondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz,

Har neniki sevmak ondin ortik' o'lmaz,

Ondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz.

\*\*\*\*\*

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,

Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, menging meynon.

Meynon menging, so'zing mul, anbar soching, yuzung hur,

Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.

Tafohur ko'zum, ko'nglum k'ilurlar magar bordur,

\*\*\*\*\*

Ko'zunga ko'ngul vola, yuzunga ko'zum hayron.

Hayron ko'zum yuzunga, vola ko'ngul ko'zunga,

Bordur magar, k'ilurlar ko'nglum, ko'zum tafohur.

Tafakkur necha k'ilsam topilmas sening misling,

\*\*\*\*\*

Pariydek seni ko'rdum emassen magar inson.

Inson magar emassen, ko'rdum seni pariydek,

Misling sening topilmas k'ilsam necha tafakkur.

Balodur manga hajring, davodur manga vasling,

\*\*\*\*\*

Itobing manga ofat, hadising manga darmon.

Darmon manga hadising, ofat manga itobing,

Vasling manda davodur, hajring manga balodur.

Chu Bobur sanga k'uldur, nazar k'il anga zinhor,

\*\*\*\*\*

Topilmas yana bir k'ul aningdek sanga, ey jon.

Ey jon sanga aningdek, bir k'ul yana topilmas,

Zinhor anga nazar k'il, k'uldur sanga chu Bobur.

\*\*\*\*\* \*



## MIRZO BOBUR IJODIDAN NAMUNALAR

### *G'azallar*

\* \* \*

Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga,  
Kelsun agar yuzumni evursam,balo manga.  
Netgayman ul rafiq bilakim,qilur base,  
Mehru vafo raqibg'a, jabru jafo sanga.  
Begona bo'lsa aql meni tilbadin,ne tong,  
Chun bo'ldi ul parisifatim oshno manga.  
Ohu yoshimdin orta durur za'f, ey tabib,  
Bildim yarashmas emdi bu obu havo manga.  
Dardim ko'rub muolajada zoe' etma umr,  
Kim,jonda dardi ishq durur bedavo manga.  
To yor kimni istaru ko'nqliga kim yoqar,  
Tashvish bejihat durur oxir sango,manga.  
Bobur,bo'lub turur ikki ko'zum yo'lida to'rt,  
Kelsa ne bo'ldi qoshima bir-bir mango manga.

\* \* \*

O'zni , ko'ngul, aysh bilan tutmoq kerak,  
Bizni unutmog'ni unutmog' kerak.

Ayshu tarab gulbunig'a suv berib,  
G'ussa niholini qurutmoq kerak.  
Tiyra turur zuhd damidin ko'ngul,  
Ishq o'ti birla yurutmoq kerak.  
Har nimag'a g'am ema,g'am ko'p turur,  
Aysh bila o'zni unutmog kerak.  
Qo'yma mashaqqat aro,Bobur,ko'ngul,  
O'zni farog'at bila tutmoq kerak.  
\* \* \*

Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg'otsam,  
Kechalar tori mo'yidek belig'a chirmashib yotsam.  
Gahi guldek yuzini ul shakar so'zluqni islasam,  
Gahi shakkar kibi ul yuzi gulning la'lidin totsam.  
Qani Shirin bila Layliki sendin noz o'rgansa,  
Qani Farhodu Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam.  
Yoruq kunduz,qorong'u kechada anjum kibi bo'lgay,  
Chekib gar oh dudini ko'ngul o'tini tutratsam.  
Ko'zum ravshanlig'ida bo'lg'ay,Bobur,base kamliq,  
Agar qoshi bila yuzun hilolu kunga o'xshatsam.  
\* \* \*

Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,  
Tiyra bo'ldi ro'zg'orim ul qaro qoshdin yana.  
Men xud ul tifli parivashg'a ko'ngul berdim, vale,  
Xonumonim nogahon buzulmag'ay boshdin yana.  
Yuz yomonliq ko'rub ondin telba bo'ldung,ey ko'ngul,  
Yaxshilig'ni ko'z tutarsen ul parivashdin yana,  
Tosh urar atfol mani,uyida forig' ul pari,  
Telbalardek qichqirurmen har zamon toshdin yana.  
Oyog'im etgancha Boburdek ketar erdim,netay,  
Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana.  
\* \* \*

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,  
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.  
Jonimdin o'zga jonni dilafkor ko'rmadim,  
Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim.  
Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi mubtalo,  
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.  
Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay,  
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.  
Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,  
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.

Bobur, o'zungni o'rgatako'r yorsizki, men  
Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.

\* \* \*

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,  
Shikasta ko'ngluma ermish qaro balo soching.  
Muyassar o'ldi junun mulki, ey junun ahli,  
Nisori ashkni emdi bu kun mango soching.  
Soching shikastida bordur shikasta ko'ngullar,  
Ko'ngullar ochilur, ochilsa ul qaro soching.  
Ochildi ko'ngli, chu ochting sochingni, Boburning,  
Ne ayb, agar desa dilbandu dilkusho soching.

\* \* \*

Baloyi ishqki, har dam manda jafoyedur,  
Bu ishdin kecha olmon ajab baloyedur.  
Xati labig'a tutash bo'lsa, ey ko'ngul, ne ajab,  
Ki Xizr chashmayi hayvong'a rahnamoyedur.  
Yarar bu xasta ko'ngul dardig'a o'qin yarasi,  
Magarki har yarasi yorning davoyedur.  
Bahor fasliduru may havosi boshimda,  
Ayoq tut menga soqiyki, xush havoyedur.  
Ul oy raqibg'a bo'ldi rafiqu Boburning  
Rafiqu hamdami hajrinda ohu voyedur.

\* \* \*

Sening ishqingda, ey nomehribon, bexonumon bo'ldim,  
Demam bexonumon ovvorayi ikki jahon bo'ldum.  
Labing gar bermasa bo'sa nechuk jon elta olg'aymen,  
Bu yo'ldakim, adam sahrosig'a emdi ravon bo'ldum.  
So'rub ul oy labidin og'zining ramzini angladim,  
Bir og'iz so'z bila ko'runski muncha xo'rdadon bo'ldum.  
Nechakim qoshi yolar ishqida tuzlukni ko'rsattim,  
Vale oxir malomat o'qlarig'a-o'q nishon bo'ldum.  
Kular erdim burun Farhodi miskin dostonig'a,  
Bu Shirindurki oning birla-o'q hamdoston bo'ldum.  
Visoling davlatig'a yetmasam Bobur kibi, ne tong,  
Ki hajring mehnatida asru zoru notavon bo'ldum.

\* \* \*

O'lum uyqusig'a borib jahondin bo'ldum osuda,  
Meni istasangiz, ey do'stlar, ko'rgaysiz uyquda.  
Nekim taqdir bo'lsa, ul bo'lur tahqiq bilgaysiz,  
Erur jangu jadal, ranju riyozat barcha behuda.

O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor  
Ki, bir dam g'am yemakka arzimas dunyoyi farsuda.  
Zamona ahli ichra, ey ko'ngul, oyo topilg'aymu,  
Seningdek dard paymovu meningdek dard paymuda.  
Ulusdin tinmadim umrimda hargiz lahzaye, Bobur,  
Magar o'lsam bu olam ahlidin bo'lg'aymen osuda.

\* \* \*

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,  
Yuzung xur, soching anbar, so'zung mul, menging meynon.  
Meynon menging, so'zing mul, anbar soching, yuzung xur,  
Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.  
Tafohur ko'zum, ko'nglum qilurlar magar bordur,  
Ko'zunga ko'ngul vola, yuzunga ko'zum hayron.  
Hayron ko'zum yuzunga, vola ko'ngul ko'zunga,  
Bordur magar, qilurlar ko'nglum, ko'zum tafohur.  
Tafakkur necha qilsam topilmas sening misling,  
Pariydek seni ko'rdum emassen magan inson.  
Inson magar emassen, ko'rdum seni pariydek,  
Misling sening topilmas qilsam necha tafakkur.  
Balodur manga hajring, davodur manga vasling,  
Itobing manga ofat, hadising manga darmon.  
Darmon manga hadising, ofat manga itobing,  
Vasling manda davodur, hajring manga balodur.  
Chu Bobur sanga quldur nazar qil anga zinhor,  
Topilmas yana bir qul aningdek sanga, ey jon.  
Ey jon sanga aningdek, bir qul yana topilmas,  
Zinhor anga nazar qil, quldur sanga chu Bobur.

### *Ruboiylar*

\* \* \*

Qayg'ungni cheka-cheka qaribdur Bobur,  
Rahm aylaki, o'zidin boribdur Bobur.  
Noranj yubordi sangakim, bilmagaysen,  
Ya'niki, bu nav' sarg'oribdur Bobur.

\* \* \*

Har kimki vafo qilsa, vafo topqisidur,  
Har kimki jafo qilsa, jafo topqisidur,



Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqisidur.

\* \* \*

Yod etmas emish kishini mehnatga kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni g'urbatga kishi.  
Ko'nglum bu g'ariblikta shod o'lmadi hech,  
G'urbatga sevunmas emish, albatta, kishi.

\* \* \*

Hijron aro yod etib meni shod ayla,  
Mahjur ko'ngulni g'amdin ozod ayla,  
Bu xatni aning uchun bitdim munda,  
Ko'rgan Soyi xatimni, meni yod ayla.

\* \* \*

Ul xatki, anda seni men yod etgaymen,  
Ko'z oqida koshki savod etgaymen,  
Kifriklardan anga qalam rost qilib,  
Ko'z qarosidin anga midod etgaymen.

\* \* \*

Nomangki tirikligim nishoni erdi,  
Har satri hayoti jovidoni erdi,  
Har lafzida oshkor yuz xarfi vafo,  
Har harfida yuz mehr nihoniy erdi.

\* \* \*

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor  
Uz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

\* \* \*

Sen gulsenu men haqir bulbuldirmen,  
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldirmen.  
Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim,  
Shohmen elga, vale senga quldurmen.

## **Adabiyotlar ro'yxati.**

**Bobur, Zahriddin Muhammad.**

**Boburnoma:**[O'rta-yoshdagi maktab bolalari uchun] / [nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev; muharrir A. O'ktam]. – T.: Yulduzcha, 1990.–368 b.

**ISBN 5–8250–051–4**

**B 79**

“**Boburnoma**”– o'zbek namunaviy adabiyotidagi bebeho asarlardan. Unda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron halqlari tarixi, jo'g'rofiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar bor. O'sha davr o'zbek adabiy tilining yorqin namunasi ekanligi esa yanada muhimroqdir.

**Bobur Hindistonda.**

Ingliz tarixchisi va tarjimoni Uilyam Erskining “Bobur hukumronligi davridagi Hindiston tarixi” asari noyob tadqiqot namunasi bo'lib, muallif mazkur asarida Bobur va boburiylar sulolasining Hindiston tarixi hamda Hindiston yarim orolidagi madaniy hayotning shakllanishida tutgan o'rni haqida xolis yuritadi.

**ISBN 5–8250–0441–6**

**E 95**

**Sotimov, G'ofurjon.**

**Boburiyzodalar/** Mas'ul muharrir: X. Sultonov. – T.: “Ma'naviyat”, 2003. – 72 b.

Ushbu risolada xorijda yaratilgan tarixiy manbalarga tayanilgan holda Hindistonda Zahriddin Muhammad Bobur tomonida asos solingan boburiylar saltanati haqida, bu saltanati mustahkamlash va qudratini yanada oshirishga hissa qo'shgan boburiy shahzoda va malikalarning shaxsiyati, insoniy qiyofasi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

**BBK 63.3 (5 U)**

## **Kenja, Qamchibek.**

**Andijondan Bafdodgacha** (Buyuklar izidan) / Safarnoma – 4. – T.: “Sharq”, 2007/ – 256 b.

Taniqli yozuvchi, Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya a’zosi, “Boburiylardan biri”, “Hind sorig’a”, “Andijondan Dakkagacha”, “Buyuklar izidan” kabi safarnomalar muallifi Qamchibek Kenjaning “Andijondan Bog’dodgacha” nomli navbatdadi kitobida Yaqin Sharq va Arabiston yarim orolidagi mamalakatlarda yashagan buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodini o’rganish yuzasidan olib borilgan izlanishlar, ekspeditsiya a’zolarining zahmatli va maroqli sarguzashtlari haqida, mazkur mamlakatlar, shaharlarning o’ziga hos jihatlari, odamlarning fe’l-atvorlari, yashash tarzlari to’g’risida hikoya qilinadi.

**ISBN 978-9943-00147-3**

**BBK 63.3(5)**

**K 37**

## **Qodirov, Primqul.**

**Yulduzli tunlar:**“Sharq” nashritot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.: – 2013. 544 b.

Qodirov, Primqul.

Humoyun va Akbar:“Sharq” nashritot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.: – 2016. 671 b.

Nizom, To’lan.

Ruhlar qasidasi:“Cho’lpon” nashriyoti T.: – 2003. 25 b.

Buyuk bobolarning etagidan tutmoq, ularning xayirli va ezgu ishlaridan hayratga tushmoq, g’ururlanmoq bizlarga otalardan qolgan merosdir. O’zbekning biror farzandi yo’qki, u o’zining ulug’ bobolarini ruhan yo’qlamagan, izlamagan bo’lmasin.

O’zbekiston xalq shoiri to’lan Nizomning “Ruhlar qasidasi” dostoni mana shu ma’noda ardoqlashga arsiydigan asardir.

## **Gazeta va jurnal maqolalari ro‘yxati.**

**Xidirova, I.**Shoh, shoir va adib : [Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo‘li haqida] / I.Xidirova // Denov ovozi. – 2022. – 12 fevral.

**Abdullayeva, M.**Buyuk inson, dovyurak sarkarda va otashnafas shoir : [Zahiriddin Muhammad Boburning hayot va ijodi haqida] / I.Xidirova // Denov ovozi. – 2022. – 12 fevral.

**Boymurod, A.** G'[aflat uyqusidan uyg'on, gar tilar bo'lsan murod : [14 fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalluikuni haqida] / A. Boymurod // Yangi O'zbekiston. – 2022.–15 fevral.

**Majid, G'.** “Hind otli bu bir parcha eri olamning” [Hazrat Zahiriddin Muhammad Bobur hind o‘lkasi haqida] / G'. Majid // Yangi O'zbekiston. – 2023.–15 fevral.

**Rahimov, J.** Bobur – buyuk sarkarda: [Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy san'ati, jangu jadallari haqida] / J. Rahimov // Yangi O'zbekiston. – 2022.–15 fevral.

**Abduraimov, A.**Buyuk sarkarda va vatanparvar shoir : [Zahiriddin Muhammad tavalludining 540 yilligiga] / A. Abduraimov // Yangi O'zbekiston. – 2023.–29 yanvar.

**Shamsitdinov, R.** Bobur va biz ham o'sha tarixiy turndamiz: [Andijonda Bobur nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish kata imkoniyatlar eshigini oshadi shu haqida] / R. Shamsitdinov// Yangi O'zbekiston. – 2023.– 2 fevral.

**Axborot bibliografiya xizmati:**

**M. Isayeva.**

**M. Muhamadiyeva**